


FILOLOGIYA FANLARI NOMZODI, PROFESSOR
ZIYOVUDDIN TOSHOV
tavalludining 80 yilligiga bag'ishlangan
"HOZIRGI GLOBALLASHUV DAVRIDA FONETIKA
VA FONOLOGIYANING DOLZARB MUAMMOLARI"
mavzusidagi xalqaro ilmiy anjuman
materiallari



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
NEMIS FILOLOGIYASI KAFEDRASI**

**FONETIKA VA FONOLOGIYA FANLARINING TARG‘IBOTCHISI,
FILOLOGIYA FANLARI NOMZODI, PROFESSOR
ZIYOVUDDIN TOSHOV**

tavalludining 80 yilligiga bag‘ishlangan

**“HOZIRGI GLOBALLASHUV DAVRIDA
FONETIKA VA FONOLOGIYANING
DOLZARB MUAMMOLARI”**

mavzusidagi xalqaro ilmiy anjuman

20-oktyabr 2023-yil

Buxoro – 2023

Hozirgi globallashuv davrida fonetika va fonologiyaning dolzarb muammolari [Матн] D.H.Karimova - Buxoro: "Sadriddin Salim Buxoriy" Durdona, 2023. - 400 b.

Mazkur to'plamda Buxoro davlat universiteti professori, filologiya fanlari nomzodi Toshov Ziyovuddin Badriddinovichning 80 yillik hayoti va 57 yillik ilmiy faoliyati hamda 100 dan ortiq mamlakatimiz va xorijiy filolog-olimlari, olimning hamkasblari, shogirdlari, do'stlari va qarindoshlari tomonidan bildirgan fikr-mulohazalari va dil izhorlari bayon qilingan.

To'plam pedagogik va ilm-fan xodimlari, yosh ilmiy izlanuvchilar va boshqa kitobxonlar uchun mo'ljallangan.

Mas'ul muharrir:
Professor S.S.Saidov

To'plovchi va nashrga tayyorlovchilar:
f.f.f.d. (PhD) D.H. Karimova
f.f.f.d. (PhD) M.M. Maxmudova

Taqrizchilar:
f.f.d. (DSC), dotsent Z.I.Rasulov
f.f.d. (DSc), professor D.H.Quvvatova
f.f.f.d. (PhD), dotsent Y.B. Ro'ziyev



**OLIV TA'LIMNI XALQAROLASHTIRISHGA ASOS SOLGAN OLIM
FONETIKA VA FONOLOGIIYA FANLARINING TARG'IBOTCHISI**

**O'quv qut beradi, bilim sharaf-shon,
Shu ikkov tufayli ulug'dir inson.**

«Qutadg'u bilik», Yusuf Xos Hojib

özgertirmeymiz. Das ist sehr ärgerlich und ich weiß nicht, was ich machen soll.- Bul júda ızalı, hám men bilmeymen ne qılıwım kerek ekenligin.

fromm, christlich,-Diese Adjektive, die dem Wort "Frau" vorangehen, deuten darauf hin, dass eine Frau eine christliche und an Gott glaubende Frau ist.

fromm- dinshil, taqıwalı, dinge isenetuǵın

christlich- xristiyan dinine tiyisli

Synonym zu fromm- geheiligt, fromm, sakral, sakramental, sakrosankt, ehrwürdig, wahr, wahrhaft, gerecht, erhaben, hehr, königlich, kaiserlich, zaristisch, fürstlich, innig, mächtig, gewaltig

Antonym zu fromm- gottlos, furchtbar, unheilig, sündig, sündhaft, lasterhaft, unverschämt, unheilig, furchtbar, atheistisch, antireligiös, schuldig, fehlbar

Beispiele: Er sagt, dass er fromm ist - Ol taqıwalı ekenligin aytadı. Ihre Familie war seit drei Generationen christlich- Onıń shańaraǵı úsh áwladtan beri xristian dinine isenedi. Die christliche Mission hat in China eine sehr lange Geschichte- Xristian dini Qıtayda júda uzaq tariyxqa iye. Ja, er ist sehr fromm.- awa, ol júda taqıwalı. Er war fromm und verbrachte seine freie Zeit mit dem Studium Quran- Ol dinshil edi, óziniń kóp waqtın qurandı úyreniwge sarıplaytuǵın edi.

LITERATURVERZEICHNIS:

1. "Kabale und Liebe " von F.Schiller M., 1966
2. Bickes, Gerhard: Das Adjektiv im Deutschen. Frankfurt am Main 1984.
3. Wenping, Tang: Die semantische Einordnung von Adjektiven im Hinblick auf Ihre Morphologie und Syntax. Eine Untersuchung am Beispiel der deutschen Gegenwartssprache. Frankfurt am Main 2000.
4. Herdin E. Studien über Bericht und indirekte Rede im modernen Deutsch, Uppsala, 1905.
5. Harweg. R Textlinguistik. -In Perspektiven der Linguistik Bd-2 Stuttgart, 1974

O'ZLASHTIRMA GAP VA UNING O'ZGA GAP DOIRASIDA TUTGAN O'RNI

Xaitova Gulshan Baxadirovna

BuxDU, Nemis filologiyasi kafedrası o'qituvchisi

Kamolova Sitara

BuxDU, Nemis filologiyasi ta'lim yo'nalishi, iqtidorli talaba

Boshqa tillardagi singari nemis tilida ham o'zga gap o'zining serqirra va keng tarqalganligi bilan alohida o'rin tutadi. O'zga gapning ko'chirma va o'zlashtirma gap kabi turlari mavjud bo'lib, tilshunoslikda ularga bir qator ilmiy ishlar bag'ishlangan. O'zga gap turlari ichida o'zlashtirma gap nemis tilida keng tarqalgan bo'lib, u bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega. Uning bu kabi xususiyatlari bilan tilshunoslar ko'p vaqtlardan beri qiziqib kelishgan.

O'zlashtirma gap muammosi nemis tilida XIX asrdan boshlab tilshunoslarni qiziqitirib kelgan. Biz bu bilan dastlab O.Behagelning ishlarida duch kelamiz. U tuzilish jihatdan o'zgartirilib berilgan har qanday o'zga gapni o'zlashtirma gap deb qarashni taklif etadi.

Keyinchalik ham ko'plab tilshunoslar o'zlashtirma gap muammosi bilan qiziqib kelishgan. Masalan, T.Vernaleken ko'chirma va o'zlashtirma gapni o'rganishda asosiy e'tiborni ularda mayl formalarining ishlatilishiga qaratadi. Uning fikricha, bu yerda indikativ va konyunktiv o'zga gap turlarini bir-biridan farqlash uchun xizmat qiladi. Agarda indikativ ishlatilsa ko'chirma gap, konyunktiv turganda esa o'zlashtirma gap yuzaga keladi, degan fikrni u oldinga suradi. Bundan tashqari T.Vernaleken ergash gap ko'rinishidagi o'zlashtirma gap bosh gapga bog'lovchili yoki bog'lovchisiz bog'lanishi mumkin degan g'oyani olg'a suradi.

V.Vilmans o'zlashtirma gap orqali nafaqat o'zga shaxsning fikri, balki so'zlovchining o'ziga tegishli bo'lgan fikr ham bayon qilinishi mumkin degan g'oyani olg'a suradi. Uning grammatikasida o'zlashtirilgan darak, so'roq va buyruq gaplarni o'rganishga keng o'rin berilgan.

Oxirgi yillar o'zlashtirma gap ko'pgina tillarda tilshunoslarning diqqat-e'tiborini o'ziga jalb qilib kelmogda. Ularning ishlarida o'zga gap o'zlashtirma gap ko'rinishida so'zma-so'z emas, balki mazmun saqlangan holda uning grammatik ko'rinishi o'zgartirilib bayon qilinadi, degan xulosa qilinadi.

Biroq V.I.Koduxov, A.I.Zaretskiy, B.P.Ardentov, M.K.Milix kabi tilshunoslar bu fikrga qarshi chiqib, o'zlashtirma gapda o'zga shaxs fikri so'zma-so'z va so'zma-so'z bo'lmagan holatda bayon qilinishi mumkin degan g'oyani olg'a surishadi. Misollar keltirib, o'zlashtirma gap orqali o'zga shaxsning fikrini so'zma-so'z bayon etish mumkinligini isbotlamoqchi bo'lishadi. Masalan, M.K.Milix ikkita misol keltiradi va bu bilan o'zga gap o'zlashtirma gap formasida ham so'zma-so'z bayon qilinishi mumkin ekanligini isbotlamoqchi bo'ladi.

Он спросил: "Куда ведет эта дорога?" (Ko'chirma gap)

Он спросил, куда ведет эта дорога. (O'zlashtirma gap)

Biroq bu narsani nemis tilida o'z isbotini topadi, deb bo'lmaydi, chunki o'zlashtirilgan so'roq gaplar har doim, darak va buyruq gap esa ko'pincha bosh gap bilan bog'lovchi orqali bog'lanadi. Bu narsa o'z navbatida ergash gap kesimining gap oxirida turishini ta'minlaydi. Natijada ko'chirma va o'zlashtirma gap bir-biridan farqlanadi. Qiyoslang:

1. *Er hat verstanden, daß Omu ihm seine Frage nicht beantworten will.*

2. *Fool trinkt seinen Whisky und überlegt, ob er die Burschen schon einmal gesehen hat.*

3. *Sie verlangten, daß Unrat und Frau mitkämen.*

Bulardan tashqari ko'chirma va o'zlashtirma gap mayl formalarining ishlatilishi bilan ham bir-biridan farq qiladi. Chunki ko'chirma gapda odatda indikativ, o'zlashtirma gapda esa konyunktiv ishlatiladi. Qiyoslang:

1. *„Ich bin Student“, sagte er.*

2. *Er sagte, daß er Student sei.*

Er sagte, er sei Student.

Yuqorida aytilganlardan shunday xulosa qilish mumkinki, nemis tilidagi o'zlashtirma gapda o'zga shaxsning fikri turli xil leksik, grammatik va stilistik o'zgarishlarga duch keladi.

Hozirgi zamon nemis tilidagi o'zlashtirma gapni ayrim tilshunoslar ikkiga ajratishadi:

a) tor ma'nodagi o'zlashtirma gap;

b) keng ma'nodagi o'zlashtirma gap.

Tor ma'nodagi o'zlashtirma gap deganda tilshunoslar nutq ma'nosiga ega bo'lgan fe'l va otlar orqali boshqariladigan o'zlashtirma gapni tushunishadi. Keng ma'nodagi o'zlashtirma gapga ergash gapni boshqaruvchi so'zlar sifatida nafaqat so'zlash ma'nosidagi fe'llar, balki o'ylash, his-qilish, biron joyga yozish ma'nosidagi so'zlar ishlatiladi.

Biz bu yerda o'zlashtirma gapga bag'ishlangan ishlarni uch guruhga ajratishimiz mumkin:

1. O'zlashtirma gapni faqat gapirish ma'nosiga ega bo'lgan so'zlarga bog'lab o'rganadigan ishlar.

1. *Er hat Frau Hohner gesagt, sie solle ihm vorlesen, was auf dem Zettel stehe. (L. Frank. Die Jünger Jesu. S. 12).*

2. *Mühsam lächelnd fragte Willi, von wem Alois das Wisse, ... (G.Gärlich. Das Liebste und das Sterben. S. 141).*

2. Ba'zi ishlarda o'zlashtirma gap so'zlash va o'ylash ma'nolariga ega bo'lgan so'zlarga bog'lab o'rganiladi.

1. *Der Jünger weinte und schwur, daß er diese Schmach nicht überleben könne*

2. *Anna weinte unwillig, daß der Martin auch andauernd rauf und runter laufen müsse.*

3. Ba'zi ishlarda o'zlashtirma gap nafaqat aytilgan, o'ylangan fikr, balki his qilingan, biron joyga yozilgan fikrni ifoda etish uchun xizmat qilishi e'tirof etiladi. Masalan. E.V.Guliga shunday yozadi: "Косвенная речь понимается нами широко, не только как передача чужих слов, но и как передача чужих смыслов, чувств и знаний".

Boshqa tillardagi singari nemis tilida ham o'zlashtirma gapning yuzaga kelishida muallif gapi muhim rol o'ynaydi, chunki u orqali o'zga gapning qachon, qayerda, kim tomonidan va qay holatda o'z ifodasini topganini bilib olamiz.

O'zga gapning intonatsion tuzilishi va kommunikativ funksiyasi bu gaplarda bir-biriga mos kelmaydi. *Dreck ist vogelfrei* ko'chirma gapi mustaqil gap tarzida namoyon bo'lgan. U shu ko'rinishda, ya'ni avtor gapisiz ham mustaqil ohangga ega bo'lib, mustaqil darak gap deb hisoblanishi mumkin. ... *daß er zwei Tage zu spät komme* o'zlashtirma gapi intonatsiya jihatdan ham, kommunikativ funksiyasiga ko'ra ham o'z mustaqilligini yo'qotgan.

Nemis tilida o'zlashtirma gap muallif gapi tarkibidagi biron-bir so'z bilan juda ham yaqindan aloqada bo'ladi. Bu so'zni biz "**boshqaruvchi so'z**" deb ataymiz. Bu so'z grammatik jihatdan ham, semantik jihatdan ham turli-tuman bo'lib, har xil ko'rinishda namoyon bo'ladi. Hozirgi zamon nemis tilida "**boshqaruvchi so'z**" quyidagi ko'rinishda namoyon bo'lishi mumkin:

a) gapirish, o'ylash va his qilish ma'nolariga ega bo'lgan fe'llar:

Er hat verstanden, daß Omu ihm seine Frage nicht beantworten will. (8,29).

b) yuqoridagi fe'llardan yasalgan otlar (die Behauptung, die Nachricht, die Antwort, die Befürchtung, die Meinung, der Gedanke, das Gefühl usw.)

Auf seine Antwort, daß er einen Dienst suche, wies man ihn zum Aufseher der Sklaven.

v) ot kesimning o'zgarish qismi tarzida namoyon bo'lgan sifatlar (sicher, sein, einig sein, einverstanden sein, dankbar sein, sich bewußt sein usw.)

Diederich war sich tief bewußt, daß er es mit so einem Kerl nicht aufnehmen könne.

g) erkin va turg'un so'z birikmalari (*Antwort geben, zu verstehen geben, der Meinung sein, j-m klar machen, die Nachricht bekommen, den Gedanken treffen, auf den Gedanken kommen, Bescheid geben, Anzeige tun* usw.)

... *er gab ihm zu verstehen, daß er hoher Abkunft sei und zu seinem Vergnügen reise.*

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, o'zlashtirma gapning xarakterini aniqlashda uni boshqaruvchi fe'l alohida o'rin tutadi. Bu fe'l o'zgarishi bilan o'zlashtirma gapning xakteri ham o'zgarishi mumkin. Qiyoslang:

1. *Er antwortete, daß es Maria den Umständen entsprechend gut gehe...*

aytilgan fikr

2. *Er meinte, daß es Maria den Umständen entsprechend gut gehe...*

o'ylangan fikr

3. *Er fühlte, daß es Maria den Umständen entsprechend gut gehe...*

his qilish

4. *Er schrieb, daß es Maria den Umständen entsprechend gut gehe...*

yozilgan fikr

Endi shunga o'xshash yana bir misol keltiramiz. Bu yerda o'zlashtirma gapni boshqaruvchi so'z fe'l emas, balki fe'ldan yasalgan ot hisoblanadi. **Qiyoslang:**

Nun, damit hatten wir ja unser Ziel erreicht... Die Frage, ob Katharina Blum gewußt hat, daß wir ins Safe Polkt gehen würden, um jemanden aufzugabeln, beantworte ich mit Ja.

Ayni paytda ham o'zlashtirma gapning kimga tegishli ekanligini aniqlashning iloji yo'q. Uni faqat birinchi gap yordamidagina belgilash mumkin. Biroq bu yerdagi dastlabki gapda ish harakatni bajaruvchi shaxslarning (**wir**) ko'pchilik ekanligi hisobga olinsa, o'zlashtirma gap ko'rinishidagi savolning konkret kimga tegishli ekanligini aniqlab bo'lmaydi.

Nemis tilida **die Frage** otining ishlatilish doirasi shunchalik kengki, natijada u «so'rash» ma'nosidan o'tib, biron-bir muammo ma'nosida ham qo'llanish darajasiga ega bo'ladi va muallif gapining egasi funksiyasini bajarib, o'zlashtirma gap tegishli bo'lgan shaxsni anglatib keladi.

Qiyoslang:

Gegen 17:45 erhob sich nun die Frage, ob man die Vernehmung fortsetzen oder unterbrechen, ob man die Blum freilassen oder in eine Zelle verbringen solle.

Asarda ushbu gapdan oldingi to'liq bir abzats doirasida asar qahramoni Blumning tergov qilingani haqida so'z yuritiladi va shundan keyin misolimizdagi gap keladi. Ko'rinish turibdiki, o'zlashtirma gap biron bir konkret shaxsiga tegishli emas. Shuning uchun ham bu yerda so'zlovchi ifoda etilmagan. O'zlashtirma gapni boshqaruvchi va muallif gapining egasi vazifasidagi **die Frage** so'zi bayon qilingan fikrni emas, balki tergovchi oldida turgan ikkilanish muommosini

ifoda qilib kelmogda. Aynan shu jihatdan ushbu o'zlashtirma gapni tergovchiga tegishli bo'lgan fikr deb qarash mumkin.

Ko'chirma gap ham, o'zlashtirma gap ham bir maqsad yo'lida qurilgan bo'ladi. Ulardan ko'zda tutilgan maqsad o'zgalar fikrining (ba'zan o'zining oldingi gapini) boshqalarga yetkazish bo'lib hisoblanadi. Bu narsa ko'chirma gapda so'zma-so'z amalga oshirilsa, o'zlashtirma gapda o'zga gapning asosiy mazmuni izhor qilingan bo'ladi. Ular o'zlarining leksik-grammatik tuzilishi bo'yicha bir-biridan farq qiladi.

O'zlashtirma gapda o'zgalarning darak, so'roq va buyruq mazmunidagi gaplari qayta bayon qilingan bo'ladi. Ular o'rtasida bir qator farq qiluvchi tomonlar mavjud.

O'zlashtirma gapning ifoda formalarini belgilashda ikki planlik yagona ko'rsatgich emas. Chunki bu yerda asosiy maqsad o'zgalar fikrining mazmunan qayta bayon qilish bo'lib hisoblanadi.

ADABIYOTLAR:

1. Abdullayev A. Ko'chirma gapli konstruktsiya komponentlarining o'zaro munosabati. T., 1982.
2. Abduraxmonov A. Qo'shma gap sintaksisi. Toshkent, 1964, 18-b.
3. Eger J. Neue Untersuchungen zum Wesen und zur Struktur des deutschen Satzes. Berlin, 1971.

ПОСТРОЕНИЕ ПРЕДЛОЖЕНИЯ В АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ

Г.К. Хожаметова

Ассистент кафедры иностранных языков КГУ им Бердаха

Ни одно английское предложение нельзя правильно построить, не зная того, как строится простое предложение.

В любом языке предложение – это правильное описание реальных жизненных ситуаций. Чтобы правильно описать какую-то ситуацию, нужно взять слова (названия предметов и понятий), задействованные в данной ситуации и соединить их так, чтобы из этих слов получилась картинка. Если слова соединяются правильно, значит, в голове у собеседника возникнет точно такая же картинка, что была задумана нами.

В русском языке основную работу по соединению слов в предложении выполняют окончания. Поэтому иностранцы, изучающие русский язык, вынуждены запоминать огромное количество русских окончаний. В английском языке окончаний нет. Они-то и не нужны, потому что все соединения слов в предложении выполняют сказуемые. Сказуемое – это то, что должно изучаться в английском прежде всего. Получается, что в русском языке сказуемое работает как бы в паре с окончаниями, а в английском – самостоятельно. Значит, в английском сказуемом содержится нечто такое, что компенсирует отсутствие окончаний, чего нет у русского сказуемого.

Это "нечто" - характер действия! Запомните это понятие. При построении любого английского предложения мы должны обязательно определить характер действия сказуемого. Без этого нельзя построить правильно ни одну английскую фразу.

В английском языке существует всего 7 формул сказуемого; но только они служат основанием, на котором строится все дальнейшее изучение грамматики; в любом английском предложении присутствует одна из семи формул, или же, другими словами, ни одно английское предложение нельзя построить, не используя одну из семи формул.

Схема формул английского сказуемого.

Общие понятия, использованные в схеме:

1. Залог (есть в русском языке).

Active (действительный) - когда подлежащее (главный член предложения) само выполняет действие:

N.M. Nazarova. "KONSEPT" TUSHUNCHASIDA LINGVISTIK MA'LUMOTLAR	157
F. S. Nasimova. TERMIN VA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	159
K.H. Saitova. THE ROLE OF TRANSLATION MISTAKE IN TEACHING INTERPRETATION	161
M.C. Мирханова. АНГЛИЙСКИЕ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИЕ ЕДИНИЦЫ В РУССКОМ ЯЗЫКЕ	163
E.B. Jumayev, G.X. Nurullayeva. NEMIS TILIDA SHAXS IFODASI	164
N.T. Tabisxanov. Die Adjektive im Werk „Kabale und Liebe“ von F.Schiller	166
Xaitova Gulshan Baxadirovna, Kamolova Sitora. O'ZLASHTIRMA GAP VA UNING O'ZGA GAP DOIRASIDA TUTGAN O'RNI	168
Г.К. Хожаметова. Построение предложения в английском языке	171
Г.К. Хожаметова. Методико-лингвистические принципы анализа фразеологической деривации в английском языке	173
М.А.Кучиев. ИЛОВАЛИ ЭЛЕМЕНТЛАР СИФАТИДА ҚЎЛЛАНГАН ФРАЗЕОЛОГИЗМ ВА БАДИИЙ ТАСВИР ВОСИТАЛАРИНИНГ ЎЗИГА ХОС СТИЛИСТИК ВАЗИФАЛАРИ	175
Badalov Feruz Nuriddinovich. NEMIS TILIDAGI FRAZEOLGIK BIRLIK LARNING ONLAYN AXBOROT NASHRLARIDAGI TUTGAN O'RNI	176
Xolova Shahnoza Davronovna. FRAZEMA VA UNING TADQIQ ETILISH TARIXI	178
Abdrimova D., Ismailov Yu.N. Stilistik figuralar matnning tarkibiy qismi sifatida	179
3-sho'ba. Zamonaviy tarjimashunoslik va adabiyotshunoslik: an'ana va innovatsiyalar	182
Зохиджон Садиқов. АЛИШЕР НАВОИЙ ИЖОДИ ОЛМОҢ ТИЛИДА	182
Д.З.Ражабов. ЎЗБЕК ХАЛҚ ҚЎШИҚЛАРИДА ПОЭТИК НУТҚ ИФОДАСИ	185
Adizova Obodon Istamovna. FOLKLORSHUNOSLIKNING JANRIY TARKIBI VA TIZIMI XUSUSIDA	188
Adizova Obodon Istamovna. L'ÉTUDE SYSTÉMATIQUE DES MOEURS ET DES COUTUMES ...	190
Karimova Dilafro'z Halimovna, Axmadova Xusnora Narzillo qizi. AKA-UKA GRIMM ERTAKLARINING YARATILISH TARIXI VA O'ZBEKCHA TARJIMALARI XUSUSIDA	194
Maxmudova Muattar Maxsatilloevna, Xayitova Mavjuda. Y.V.GYOTE "G'ARBU SHARQ" DEVONINING MAQSUD SHAYXZODA VA S.S.BUXORIY TARJIMALARIDAGI FARQLAR VA MUSHTARAKLIKLAR	196
Hayitova Mavjuda. S.S.BUXORIY IJODIDA SHARQU G'ARB MAVZUSI VA "MAG'RIBU MASHRIQ" DEVONI TARJIMASI HAQIDA	199
Babayev Otabek. ÜBERSETZUNGEN UND AUSGABEN VON JALOLIDDIN RUMIS WERKEN	202
Babayev Otabek Abdikarimovich, Zokirov Jamshid Kholmat Ugli. The history of interpreting	204
Jumayev Akmal Axmatovich. QALDIRG'OCH OBRAZI O'ZBEK VA NEMIS XALQ ERTAK VA AFSONALARIDA	207
Jabbarova Maloxat Xamdamovna. ВЛИЯНИЕ НАЦИОНАЛЬНОГО МИРОВОЗЗРЕНИЯ ПИСАТЕЛЯ НА ИЗОБРАЖЕНИЕ ЖЕНСКОГО ОБРАЗА	209
Babayev Otabek, Anna Angelika Janning, Anne Charlotte Blasel. FUNKTIONEN UND ROLLE DER LITERARISCHEN ÜBERSETZUNG IM 21. JAHRHUNDERT	212
Xudoyev Samandar Samatovich. O'ZBEK LATIFALARINING TARJIMA EVOLYUTSIYASI	218
Bozorova Muxabbat Abduraxmonovna. HAYNRIX HAYNE SHE'RLARI O'ZBEKCHA TARJIMASIDA SHARQONA OBRAZ VA MOTIVLAR IFODASI	220
Бозорова Мухаббат Абдурахмановна. ВЫРАЖЕНИЕ ВОСТОЧНЫХ ОБРАЗОВ В УЗБЕКСКОМ ПЕРЕВОДЕ СТИХОТВОРЕНИЙ ГЕНРИХА ХЕЙНА	222
Tolibjanov Baxromjon Maxmudxanovich. MARK TVEN YUMORISTIK ASARLARI TARJIMASIDA MUHOJAAT SHAKLLARINING BERILISHI	224
Jumayeva Shahlo Shokirovna. MILLIY KOLORIT TERMINI, UNING ADABIYOTSHUNOSLIKDA O'RGANILISHI VA UNING QAMROV DOIRASI	225
Babayev Maxmud Tashpulatovich, Bafoyev Mirfayz Baxshilloevich. MADANIYATLARARO MULOQOTDA TARJIMANING O'RNI	227
Babayev Maxmud Tashpulatovich, Ashirova Rayhon Anvar qizi. ERTAKLAR VA BADIY ASARLARNI TARJIMA QILISH MAHORATI	229
Xurshida Hasanova. FANTAZIYA JANRIDAGI ASARLARINING ILMIY VA NAZARIY QIRRALARI	231
Xamdamov Oybek Abdulxayevich. "O'TKAN KUNLAR" ROMANI TARJIMALARI TADQIQI	233